

## O‘ZBEKISTONDA INVESTITSYAVIY MULKLAR BUXGALTERIYA VA SOLIQ HISOBI

**Axmedjonov Abdufato**

SAMISI, “Buxgalteriya hisobi” kafedrası dotsenti  
iqtisodiyot fanlari nomzodi.

**Annotatsiya:** Maqolada O‘zbekiston qonunchiligiga ko‘ra investitsiyaviy ko‘chmas mulklar bo‘yicha buxgalteriya hisobi va soliq hisobi o‘rtasidagi farqlar, soliq imtiyozlari va yuzaga keladigan soliq majburiyatlari tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** soliq hisobi, buxgalteriya hisobi, O‘zbekiston, investitsiyaviy mulk, soliq farqlari, foyda solig‘i.

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasida investitsiyaviy ko‘chmas mulklarga nisbatan buxgalteriya hisobi va soliq hisobi o‘rtasida jiddiy tafovutlar mavjud. Ushbu farqlar korxonalar uchun qo‘shimcha hisob-kitob yuklamasini keltirib chiqarmoqda va soliq xavfini oshirmoqda. Mavzuning o‘rganilishi buxgalteriya va soliq hisobini yaqinlashtirish, soliq imtiyozlaridan samarali foydalanish va qonunchilikdagi kamchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi.

Ko‘chmas mulk juda katta sarmoyani talab etadigan soha hisoblanadi. Larry Schlessinger ta’kidlashicha “ResortBrokers ixtisoslashgan ko‘chmas mulk agentligining bergan hisoboti bo‘yicha birgina Avstraliyaning kuchmas mulk menejmenti huquqlari industriyasi taxminan 8 mlrd dollarga teng ekanligini qayd etgan”. Bu o‘z navbatida ko‘chmas mulklardan samarali foydalanish, ularning bo‘sh turib qolishiga yo‘l qo‘ymaslikni taqozo etadi. Buning uchun esa ko‘chmas mulklardan qanday shakllarda foydalanishi to‘g‘risida ishonchli va foydali axborotlar talab etiladi. Bunday axborotlar faqatgina Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida axborot tayyorlash yo‘li bilan erishiladi.

Tajribalar va hisob-kitoblar tizimini takomillashtirish, uni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish zaruriyati boshqa muhim tarmoqlarda ham yuzaga kelmoqda. Prezident

Shavkat Mirziyoev raisligida joriy yilning 9 noyabr kuni paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini takomillashtirish, qishloq xo'jaligi tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash va hosildorlikni oshirish chora-tadbirlari muhokamasi bo'yicha videoselektor yig'ilishida "Mutasaddilarga klaster va fermer xo'jaliklarini moliyalashtirishning yangi tartibini yo'lga qo'yish, ular o'rtasidagi debitor-kreditor qarzdorlikni hal etish bo'yicha topshiriqlar berildi. Klasterlarni xalqaro moliya standartlariga o'tkazish zarurligi qayd etildi". Xalqaro standartlarga o'tkazilishi kerak bo'lgan hisob ob'ektlaridan biri bu investitsiyaviy ko'chmas mulk (IKM) hisoblanadi. Investitsiyaviy ko'chmas mulk qadrsizlanishi deganda nima tushuniladi? IKMning qadrsizlanishidan zarar qanday hisoblanadi? IKMdan qadrsizlanishdan zararni baholash hamda hisobotlarda aks ettirish qanday amalga oshadi? kabi bir qancha savollarga javob topish, qadrsizlanishdan zarar hisobi metodologiyasini takomillashtirish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

M.I.Xayitbaev, J.M.Israpilovlar "Buxgalteriya hisobida investitsiyaviy ko'chmas mulk alohida ob'ekt sifatida kiritilishi, shubhasiz, bu kabi ob'ektlarni baholash, hisobda aks ettirish va auditini tashkil etish uslubiyotini ishlab chiqishni taqozo etadi" degan fikrlariga to'liq qo'shilamiz.

Rossiyaning banklari Nizomida "Investision ko'chmas mulk qadrsizlanishi alomatlari mavjud bo'lgan hollarda nokredit moliya tashkiloti qadrsizlanishdan zarar summasini aniqlaydi va quyidagi buxgalteriya yozuvi bilan aks ettiradi: debet 71702 "boshqa operatsiyalar bo'yicha xarajatlar" kredit 61913 "Investitsiyaviy ko'chmas mulk qadrsizlanishi jamg'arilishi" buxgalteriya yozuvi taklif etilgan. Ushbu buxgalteriya yozuvi xalqaro standartlar talablariga javob beradi va uni amaliyotga joriy qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

N.V.Generalova standartlar talablaridan kelib chiqib "IKM qadrsizlanishi adolatli (haqqoniy) qiymat bo'yicha hisobga olish modelida 36-son BHXS holatlari qo'llanilmaydi. Boshlang'ich qiymati modeli bo'yicha baholanganda 16-son BHXS va 36-son BHXS lari talablariga muvofiq qadrsizlanishdan zarar tan olinishi hamda foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda aks ettirilishini" qayd etishgan.

V.G. Getman va boshqalar “investitsiyaviy ko‘chmas mulkni adolatli (haqqoniy) qiymat modelidan foydalangan holda foyda va zararlar orqali hisobga olishning eng muhim muammolar: birinchidan, IKM foyda/zararlar ko‘rsatkichining stabilligiga kuchli ta'sir ko‘rsata oladi. Uning adolatli qiymatining ko‘payish yoki kamayish tomoniga doimiy o‘zgarishi alohida tashkilotning nafaqat moliyaviy holati va natijalariga ta'sir ko‘rsatadi, balkim bozorda nostabil holatni ham yuzaga keltirish mumkin” ligini ta'kidlashadi.

Olga Yakushina “Asosiy vositalar faqat buxgalteriya hisobida qadrsizlanadi, soliq hisobida esa “qadrsizlanish” degan tushuncha amal qilmaydi” deb ta'kidlaydi. Muallifning fikriga qo‘shilgan holda albatta soliq qonunchiligida ham bu zararlarni hisobga olish zurrur deb hisoblaymiz.

Robin Djoys IKMlarga qadrsizlanish aniqlanganda qadrsizlanishdan zarar schyotini debetlash hamda jamg‘arilgan qadrsizlanishni kreditlash orqali buxgalteriya balansida jamg‘arilgan qadrsizlanishdan zarar, foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobotda esa qadrsizlanishdan zarar summasini aks ettirishni tartibini qayd etadi.

Piotr Prewysz, Grażyna Voss “Polsha va xalqaro buxgalteriya hisobi qoidalariga muvofiq investitsiyaviy ko‘chmas mulk to‘g‘risidagi axborotlarni oshkor qilish, shuningdek tahlil qilish maqsadida mamlakatdagi yirik kompaniyalar tomonidan moliyaviy hisobotlari Varshava fond birjasida taqdim etilishi” katta imkoniyatlarni yuzaga keltirganligini ta'kidlaydi.

Ushbu olimlarning ishlari albatta katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. IKM hisobi metodologiyasini ilg‘or xorijiy tajribalar va xalqaro standartlar asosida takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

Investitsiyaviy ko‘chmas mulk qadrsizlanishi ham mumkin. Uning qadrsizlanishidan zarar summasini hisoblashda adolatli (haqqoniy) qiymatda baholash o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

## **Xulosa**

O‘zbekistonda investitsiyaviy mulklar bo‘yicha buxgalteriya va soliq hisobi o‘rtasidagi farqlar korxonalar uchun qo‘shimcha yuklama va soliq xavfini yaratmoqda.

Buxgalteriya va soliq hisobini yaqinlashtirish, soliq imtiyozlarini kengaytirish va qonunchilikdagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish orqali investitsiyaviy faollikni rag‘batlantirish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Rajaboev Shahboz Shodiyevich, and Raxmatov Ozodbek Aktam O'g'li. "Information Technology Is Now Used Everywhere". *Miasto Przyszłości*, vol. 44, Jan. 2024, pp. 114-21, <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2372>.
2. Rajaboev, Shahboz Shodiyevich, and Abdunazar Burkhonovich Gaffarov. "ESSENCE OF DECISIONS ON MEASURES FOR THE DEVELOPMENT OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES." *Bulletin news in New Science Society International Scientific Journal* 2.1 (2025): 120-125.
3. Ражабоев , Ш., и П. Хамидова. «ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ». *Экономическое развитие и анализ*, т. 3, вып. 1, январь 2025 г., сс. 120-4, <https://inlibrary.uz/index.php/eitt/article/view/65480>.
4. Shodi o‘g‘li, Rajaboyev Shahboz. "BUXGALTERIYADA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLANILISHI." *Лучшие интеллектуальные исследования* 60.1 (2026): 84-91.
5. Shodi o‘g‘li, Rajaboyev Shahboz. "ONLINE ASSESSMENT SOFTWARE IN DISTANCE LEARNING: MY TEST AND ISPRING PROGRAMS AND THEIR APPLICATION." *Лучшие интеллектуальные исследования* 59.2 (2025): 299-304.
6. Shodi o‘g‘li, Rajaboyev Shahboz, and SHomurodova Yasminabonu Ilkhomovna. "AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI SOHASIDAGI KORXONALAR RIVOJLANISHINI BOSHQARISH TIZIMI." *Лучшие интеллектуальные исследования* 58.6 (2025): 7-13.
7. Sh, Rajaboyev Sh, and J. I. Xabibulloyev. "KOMPYUTER GRAFIKASI VA GRAFIK AMALLAR BILAN ISHLASHNING ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAGI O‘RNI." *Экономика и социум* 12-2 (139) (2025): 578-581.

8. Sh, Rajaboyev Sh. "KORXONALARDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI XIZMATLARI BUXGALTERIYA HISOBINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI." *Экономика и социум* 12-2 (139) (2025): 558-564.

9. Sh, Rajaboyev Sh, and H. E. Xolmamatova. "AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA SOHASIDA INNOVATSION XIZMATLARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARASI." *Экономика и социум* 12-2 (139) (2025): 571-577.